

OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Holmirzayev Sardor Ravshan O'G'Li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Uralov Baxtiyor Maxmudovich

Javmanov Jamshed Abdusamatovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida assistentlari

Annotatsiya: Raqamli oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga, o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan, respublika ilm-fani, madaniyati, iqtisodi, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'limda innovatsiya

Аннотация: Основная цель цифрового высшего образования – создание квалифицированного, конкурентоспособного, высокообразованного специалиста, способного отвечать требованиям времени, способного удовлетворить требования выбранной им области, науки, культуры, экономики республики. дается информация о подготовке высокопотенциальных специалистов, вносящих вклад в развитие социальной сферы, самостоятельно мыслящих, обладающих высокой духовностью.

Ключевые слова: система образования, цифровизация, цифровые технологии, педагогические инновации, инновации в образовании.

Abstract: The main goal of digital higher education is the creation of a qualified, competitive, highly educated specialist, capable of meeting the requirements of the time, capable of meeting the requirements of his chosen field, science, culture, and the economy of the republic. information is provided on the training of highly potential specialists who contribute to the development of the social sphere, are independent thinkers, and have high spirituality.

Key words: education system, digitalization, digital technologies, pedagogical innovations, innovations in education.

Barcha sohalar kabi ta'lim tizimini raqamlashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ta'lim sohalarini jadal sur'atlarda rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi barcha sohalar kabi ta'lim sohasiga ham juda katta o'zgarishlar olib kirmoqda, innovatsion va zamonaviy

usullar orqali bilim berish, yoshlarning Start-Up va g'oyalarini, yangi-yangi bilimlarni ishlab chiqishlari uchun qo'llab-quvvatlashda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi o'ziga xos samarali usullarni o'rganib va amalda qo'llab professional kadrlarni tayyorlash orqali maqsadga erishish mumkin.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalligi o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga, internet vositalaridan foydalanishga, o'qituvchilarni faolligini oshirishga, o'qituvchilar o'rtasida metod almashishga, o'zaro tahlil qilishga, erkin raqobatga, mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti, xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari yutuqlarini rag'batlantirishga, muammo va kamchilliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Yuqoridagi pedagogik innovatsiyalarga doir tasniflardan ma'lum bo'ladiki demak, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar:

- maqsad, mazmun, metod va texnologiya, ta'limni tashkil etish shakli, boshqaruv tizimi;

- pedagogik faoliyat va o'quv-bilish jarayonini tashkil etish uslubi;

- nazorat va ta'lim olganlik darajasini baholash tizimi;

- ta'limni moliyalashtirish tizimi;

- o'quv-metodik ta'minot;

- tarbiyaviy ishlar tizimi;

- o'quv reja va o'quv dasturlari;

- professor-o'qituvchi va talaba, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelmoqda.

Pedagogik innovatsiyalar o'z navbatida ta'lim jarayonini tashkil etish parametrlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Birinchidan, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qilayotgan bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim muassasalari variativligining qiyosiy modellarining ko'rsatkichlari ham murakkablashib bormoqda.

Ta'limda innovatsiya jarayoni dastlabki yondashuvlarda ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan jarayon deb qaralgan va irratsional, hamda tashkil etilmagan, ilgari ishlatilmagan, faqat modelda o'z ifodasini topishi mumkin bo'lgan izchil xarakterli jarayon deb hisoblangan.

Ma'lumki, bugungi kunda texnologik yondashuvga asoslangan paradigmadan ta'lim jarayonida keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalashtirish masalasi oliy ta'lim tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq loyihalash va rejalashtirishga doir faoliyatning mazmun-mohiyati hamma uchun birdek tushunarli bo'lmayapti. Shuning uchun fanlar bo'yicha yaratilayotgan ta'lim texnologiyalarida formallik, takroriylik, maqsad va vazifalarning nomuvofiqligi, qayta aloqalarning intensiv emasligi, loyihalash va rejalashtirishning ketma-ket amalga oshirilmasligi kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda biz ta'limdagi innovatsiyalarning ikki xil xususiyati (tashqi va didaktik)ga ko'ra tasniflashni lozim deb topdik (1-rasm).

Ta'lim jarayonini tashkil etish



1-rasm. Pedagogik innovatsiyalarning tasnifiy parametrlari

Ta'limda innovatsion faoliyat maqsadga muvofiq tashkil etilgan o'quv jarayonlar texnologiyalarining majmui bo'lib, o'quv jarayonini innovatsion faoliyat doirasida ishlab chiqarish, ta'lim olish, bilim ko'nikmalarga ega bo'lish, texnik, tijorat, bilim ko'nikmalarining nazariy va mustaqil jarayonini tashkil etuvchi faoliyatga doir yangiliklarni qo'llash asosida olib boriladigan faoliyatdir. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat keng ma'noda o'qitishning yangi zamonaviy va bilim ko'nimalarini o'zlashtirishning yangicha yondashuvlarini o'z ichiga olgan faoliyat bo'lib, u ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy moliyaviy va tijorat faoliyatlarining majmui sifatida rivoj topadi.

Ta'limga texnologik yondashuv o'qituvchidan o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko'p mehnat qilishni talab qiladi. Mazkur jarayonda professor-o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to'g'ri qo'yish, o'quv faoliyati natijalarini aniqlashtirish, ta'limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlab olish, o'quv vaqtini oqilona taqsimlash orqali o'qituvchi va talabaning faoliyatini aniq tartiblangan algoritmini hosil qilishi lozim. Ana shu tartibda o'quv jarayonini loyihalay olgan professor-o'qituvchigina talabalarning o'quv-bilish faoliyatini erkin boshqara oladi.

Ta'lim - boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu yerda ta'lim

texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi.

Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi marraga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi (pedagog) hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan xabardor qilib turadi va o'quvchi-talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta'limning zaruriylikini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan pedagogik ilmiy-tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik yangiliklar maqomi yig'indisini o'zida aks ettiruvchi didaktik tarkibiy qismlar bilan chambarchas bog'liq.

Tayanch signallar g'oyasi. Ta'lim jarayonida tayanch signallar umumlashgan tarzda javoblar (tushunchalar, qonunlar, nazariya); jadvallar; mashg'ulotlar yoki vazifalarni hal etishning rejalarini tuzish algoritmi; tadqiqot qoidalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Eng muhimi, talaba nafaqat tayyor tayanch signaldan foydalanishi, balki yangilarini yaratishi ham mumkin.

Umumlashgan (yirik) bloklar g'oyasi. Fan bo'yicha o'quv materialining o'zaro bog'liq muhim qismlari bir mashg'ulotning (masalan, ma'ruza, maslahat, nazorat paytida) o'zida "yaxlit blok" tarzida ko'rib chiqilishi mumkin. Mazkur metod nafaqat avval o'rganilganlarini umumlashtirish, balki yangi materiallarni o'zlashtirish uchun ham qo'llaniladi.

"Xususiydan umumiyga qarab borish" g'oyasi. Amaliy jihatdan talaba har bir o'quv mashg'ulotida o'zining shaxsiy kuzatishlaridan umumiy tarzda anglashga; alohida hodisalarni tadqiq etish orqali – bilish dunyosini tushunishga; alohida tushunchalarni o'zlashtirishdan umumilmiy mazmundagi metodologik bilimlarga; aniq vazifalarni hal etish orqali – nafaqat xilma-xil o'quv, balki hayotiy muammolarni hal etish usullariga qarab boradi.

Diametral obyektlardan foydalanish g'oyasi. Istalgan kurs qarama-qarshiliklar birligi va kurashi tamoyilini tasvirlash hamda tushuntirish uchun boy materialga ega. Mashg'ulotda ulardan bir paytning o'zida foydalanish yangining paydo bo'lishiga

yordam beradi. Mazkur jarayonda qo'llaniladigan metodlarga o'quv dialogi, munozarani kiritish mumkin.

Bir joyda to'plash g'oyasi. Mazkur g'oya turli usullar bilan amalga oshiriladi: asosiy mashg'ulotlarga qo'shimcha tarzda fan dekadalari yoki haftaliklari o'tkazish; 3-5 kun davomida qatorasiga biror asosiy fan bo'yicha blokli mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqalar.

O'quv bilimlarini integratsiyalash g'oyasi. Mazkur muammo barcha jihatdan o'zida ta'limni insoniylashtirish va insonparvarlashtirishni aks ettiradi. Emotsiya va his-tuyg'ular orqali o'qitish talabani faqat aqliy qobiliyatiga tayanish asosidagina ta'lim berishdan samaralidir. Masalan, tabiiy-matematik kurslarda san'at asarlaridan foydalanish talabalarga nafaqat materialni emotsional idrok etish, balki she'r, qo'shiq, maqol, tasviriy san'at asarlarida noma'lum tarzda ifoda etilgan ma'lumotlarni izlab topish imkonini beradi.

O'qituvchining funksiyalarini talabalarga taqdim etish g'oyasi. Pedagogning talabalar tomonidan bajara olish mumkin bo'lgan qator funksiyalari mavjud. Ilg'or pedagoglar tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishi ularda kasbiy faoliyatga qiziqishni oshiradi, yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Interfaollik g'oyasi, ta'limiy texnologiyalar rivojining zamonaviy g'oyalari orasida axborotga yo'nalganlikdan interfaol yo'nalganlikka o'tish kuzatiladi. Masalan, kompyuter o'yinlari, multimediali ta'limiy dasturlar foydalanuvchidan harakatlarni erkin tanlash va individual natijalarga erishishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:

1. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
2. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklastarlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
4. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
5. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).

6. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.
7. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLAsterLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.
8. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
9. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
10. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.
11. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
12. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.
13. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.
14. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.
15. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
16. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.
17. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UN DAN MAM LAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.
18. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.
19. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.

20. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.
21. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.
22. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.
23. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.
24. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.
25. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.
26. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
27. Makhmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.
28. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
29. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
30. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
31. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
32. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World of Science, 6(4), 345-351.
33. Абдигаппарович, И. Х., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА

СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR
NAZARIYASI, 7(1), 361-368.

34. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.